

O'QUV DASTURI PASPORTI

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PF-88 sonli Farmonlari va PQ-185 sonli Qarori bilan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan xolda Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tashkiloti o'rtasida 2024-yil 16-mayda imzolangan loyiha asosida ishlab chiqilib Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashining 2025-yil 5 sentyabrdagi №53 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030-yil oktyabrgacha.

Ta’lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi				
Kafedra/ bo‘lim	Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish				
O‘quv dastur nomi	<i>Sog‘liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog‘lig‘ini saqlash. Tizimni moliyalashtirish transformatsiyasi asoslari.</i>				
O‘qish turi	Integratsion umumiy malaka oshirish				
O‘quv dastur muallifi/ mualliflari	Asadov D.A., Xakimov V.A., Asadov X.D., Anne Christine Hanser, Olav Götz, Abbasxanova Sh.N.				
Siklning umumiy soati	180 kredit				
Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar					
					
Professor, t.f.d. Asadov D.A.	Dotsent, t.f.n. Xakimov V.A. Sikl kuratori	Dotsent, t.f.d. Asadov X.D. – kafedra mudiri	Dotsent, t.f.d. Xamrayev A.K.	Dotsent, t.f.d. Narmuxamedova N.A.	Katta o‘qituvchi, t.f.n. Aripov T.Yu.
					
Katta o‘qituvchi Sadikxadjayeva D.A.	Katta o‘qituvchi Abduraximova S.B.	Katta o‘qituvchi, t.f.n. Agzamov A.A.	Assistent Abbasxanova Sh.N. – amaliyot koordinatori	Anne Christine Hanser. PhD, University of Bath (Buyuk Britaniya, Bat). GFA Consulting Group ni sog‘liqni saqlashni boshqarish sohasidagi xalqaro eksperti	Olav Götz, PhD, MSc, University of Applied Sciences Appollon (Germaniya Federativ Respublikasi, Bremen). Fan va internatsionalizatsiy a bo‘yicha vitse- prezident, sog‘liqni saqlashda umumiy menejment va maslahat bo‘yicha professor

Maqsad	O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'RQ-788-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PF-5590 sonli, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli, 2025-yil 19-maydagi PF-88 sonli Farmonlari va PQ-185 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2025-yil 7-may kuni tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bilan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan xolda sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash, soha iqtisodiyoti, moliyalashtirishi hamda muassasa faoliyatini rejalashtirish, uni umumiy boshqaruvi, klinik jarayonni boshqarish, dori vositalari xarakatini boshqarish, moliya-xo'jalik faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish, xodimlar tarkibini tashkillashtirish va boshqarish, axborotni boshqarish hamda amalga oshirilayotgan sohani moliyalashtirish transformatsiyasi asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish, kelgusida ulardan foydalanishga imkoniyat yaratish.				
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	-sog'liqni saqlash vazirligi va uning tasarrufidagi muassasalarning (respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning xududiy bo'linmalari, respublika miqyosidagi muassasalar, xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari, xududiy tibbiyot muassasalari, tuman/shahar tibbiyot birlashmalari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining xududiy boshqarmalari hamda bo'linmalari) rahbar xodimlari; -idoraviy tibbiy xizmatlar rahbar xodimlari, nodavlat tibbiyot muassasalari rahbar xodimlari, ta'lim muassasalarini sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlashga oid kafedra, bo'linmalari xodimlari.				
Sikl vazifalari	<u>Tinglovchilarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot berish:</u> • Mamlakat ijtimoiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishtirish; • Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlashning nazariy va amaliy jihatlarini asoslash; • Tibbiy myenejment, menejer faoliyatining asosiy tushunchalarini shakllantirish va ularni ushbu yondashuvdan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash; • Dunyoda rivojlangan sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning iqtisodiy jihatlar va modellari haqida ma'lumot berish va sog'liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirish amaliyotini o'rgatish; • O'zbekiston Respublikasida fuqarolar sog'lig'ini saqlash, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish borasida tibbiyot muassasalarining vakolatlari va ularning funksional vazifalarini amalga oshirishga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish; • Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari, xususiyatlarini ko'rsatish; • Davlat tomonidan belgilangan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini aniqlash va uni tatbiq etishni tanishtirish; • Davlat tibbiy sug'urtasini bosqichma-bosqich joriy etish shartlarini asoslash; • Tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi, mablag'larning maqsadli sarflanishi va byudjet intizomiga rioya etish tartiblarini tushuntirish;				

	• Tibbiyot muassasalari xodimlari ish haqi tizimi, tarif razryadlarini belgilash, ustama va qo'shimchalar hamda rag'batlantiruvchi to'lovlarning to'lanish asoslari; • Tibbiyot muassasalarida moddiy-texnika boyliklari bilan ishlashda amaldagi nomativ-huquqiy hujjatlar talabalariga rioya etish; • Tibbiyot muassasalarining moliyaviy erkinlikka va yetarli moliyaviy manbaalarga erishishlari uchun pullik xizmat va servis xizmatlarni yo'lga qo'yishlari shartlarini asoslash; • Tashkilotning moliya, soliq va statistik hisobotlarini o'z vaqtida tayyorlash va taqdim etish tartiblari. • Javobgarlik, byudjet va byudjetdan tashqari ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish tartiblariga rioya etish; • Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash; • Yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlash asoslari, ijro intizomiga rioya etish; • Tibbiy huquq asoslari. • Tibbiyot xodimlarining odob ahloq kodeksi va odob-ahloq qoidolari bilan tanishtirish. • Belgilangan vazifalarga, jumladan sohani moliyalashtirishga doir ilg'or xorijiy tajriba bilan tanishtirish.
Sikl tarkibi	Modul 1. Jamoat salomatligi asoslari. Modul 2. Sog'liqni saqlashni boshqarish asoslari. Modul 3. Tibbiy statistika, muassasalar faoliyatini taxlil qilish asoslari. Modul 4. Tibbiyot muassasalarining moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish asoslari. Modul 5. Tibbiy xizmat sifatini boshqarish asoslari. Modul 6. Sog'liqni saqlashda menejment, nizolarni boshqarish. Modul 7. Sog'liqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar. Modul 8. Raqamli sog'liqni saqlash va axborot tizimlari. Modul 9. Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy xizmat. Modul 10. Tibbiy huquq, muloqot madaniyati asoslari. Yakuniy imtihon, baholash.
O'quv bazalari	<u>Asosiy o'quv bazasi:</u> Toshkent shahri, Parkent ko'chasi, 51 uy. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrası. Mashg'ulotlar kunduzgi (bevosita), masofaviy tartibda interfaol ko'rinishda olib boriladi. <u>Qo'shimcha o'quv bazalar:</u> sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari, xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari, xududiy davolash-profilaktika muassasalari. Amaliyot, masofaviy va sayyor mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalaniladi. <u>Amaliy mashg'ulotlar uchun bazalar:</u> kafedrani ikki tomonlama shartnomalari mavjud davolash-profilaktika muassasalari masofaviy va sayyor mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalaniladi. <u>Sog'liqni saqlashni boshqaruv organida amaliyot o'tash uchun bazalar:</u> Sog'liqni saqlash vazirligi, tegishli xududiy sog'liqni saqlash boshqaruv organi tomonidan ta'minlab beriladigan bazalar. Bunda birinchi navbatda bevosita xududiy sog'liqni saqlash boshqaruv organidan (uning tarkibini o'rganish va faoliyatida ishtirok etish maqsadida), undan tashqari uning tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalaridan foydalaniladi.

Mashg'ulotlar jarayoni



Mashg'ulotlar jarayoni

A



Sayor tartibdagi mashg'ulotlar jarayoni

